

FUQAROLIKNI RASMIYLASHTIRISH BO'YICHA ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATINI MODERNIZATSIYA QILISH: INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR VA HUQUQIY-TASHKILIY ISTIQBOLLAR

Omonov Alim Tolibovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18358609>

Annotatsiya. Maqolada ichki ishlar organlarining fuqarolikni rasmiylashtirish bilan bog'liq faoliyatini takomillashtirish istiqbollari huquqiy-tashkiliy va boshqaruv (governance) yondashuvi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot amaldagi tartib-taomillarni optimallashtirish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va "fuqaroga yo'naltirilgan" (citizen-centric) modelni qaror toptirishga qaratilgan institutsional yechimlarni tizimlashtiradi. Xususan, protsedural standartlarni yagona formatda belgilash, hujjatlar talabini ratsionallashtirish, identifikatsiya-verifikatsiya jarayonlarini raqamlashtirish, idoralararo axborot almashishni integratsiya qilish, "track-and-trace" nazorat mexanizmlarini joriy etish hamda qarorlarni asoslantirish va shikoyat mexanizmlarini kuchaytirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, shaxsga doir ma'lumotlar himoyasi, kiberxavfsizlik, komplaens, korrupsiyaviy risklarni kamaytirish, kadrlar salohiyati va xizmat etikasi kabi omillar islohotlarning zarur sharti sifatida tahlil etiladi.

Yakunda fuqarolikni rasmiylashtirish xizmatlari samaradorligini oshirish uchun normativ-texnologik va institutsional takliflar hamda amaliy tavsiyalar shakllantiriladi.

Kalit so'zlar: ichki ishlar organlari; fuqarolikni rasmiylashtirish; modernizatsiya; institutsional islohot; ma'muriy tartib-taomil; raqamlashtirish; idoralararo integratsiya; due process; komplaens; kiberxavfsizlik.

Аннотация. В статье рассматриваются перспективы совершенствования деятельности органов внутренних дел по оформлению гражданства на основе административно-правового и организационно-управленческого (governance) подходов.

Исследование систематизирует институциональные решения, направленные на оптимизацию процедур, повышение качества услуг и формирование "ориентированной на гражданина" модели. Анализируются меры по стандартизации процедур, рационализации документальных требований, цифровизации процессов идентификации и верификации, интеграции межведомственного обмена данными, внедрению механизмов контроля "track-and-trace", усилению мотивированности решений и эффективности обжалования. Отдельное внимание уделяется защите персональных данных и кибербезопасности, комплаенсу и снижению коррупционных рисков, кадровому потенциалу и этике государственной службы. В заключении предлагаются практические рекомендации и направления нормативно-технологических и институциональных реформ для повышения эффективности услуг по оформлению гражданства.

Ключевые слова: органы внутренних дел; оформление гражданства; модернизация; институциональная реформа; административная процедура; цифровизация; межведомственная интеграция; due process; комплаенс; кибербезопасность.

Abstract. This article explores the prospects for improving internal affairs bodies' performance in citizenship formalization through administrative-law and governance perspectives. It systematizes institutional reform options aimed at optimizing procedures, improving service quality, and establishing a citizen-centric model. The paper examines procedural standardization, rationalization of documentary requirements, digitalization of

identity verification and document authentication, inter-agency data integration, “track-and-trace” oversight mechanisms, and strengthened requirements for reasoned decisions and effective appeals. It also addresses enabling conditions such as personal data protection and cybersecurity, compliance and anti-corruption risk mitigation, staff capacity, and public service ethics. The article concludes with practical recommendations and reform directions—normative, technological, and institutional—to enhance the effectiveness and legitimacy of citizenship formalization services.

Keywords: internal affairs bodies; citizenship formalization; modernization; institutional reform; administrative procedure; digitalization; inter-agency integration; due process; compliance; cybersecurity.

Fuqarolikni rasmiylashtirish xizmatlari shaxsning huquqiy maqomini belgilash bilan birga, migratsiya boshqaruvi, milliy xavfsizlik va inson huquqlari kafolatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan murakkab ma‘muriy jarayon hisoblanadi. Ichki ishlar organlari ushbu jarayonda arizalarni qabul qilish, identifikatsiya-verifikatsiya, ma‘lumotlar bilan ishlash va idoralararo muvofiqlashtirish orqali xizmat ko‘rsatish sifatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Biroq hujjat talablari, muddatlar, shaffoflik, qarorlarni asoslash va shikoyat mexanizmlari bilan bog‘liq amaliy muammolar fuqarolar uchun ortiqcha vaqt va xarajat keltirib chiqarishi mumkin.

So‘nggi yillarda yangi O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish va ularga rioya qilishni ta‘minlash masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklarini ta‘minlash masalasi xalqimiz uchun farovon va munosib turmush sharoitini yaratib berishga qaratilgan keng ko‘lamli demokratik islohotlarning bosh mezonidir. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev taabiri bilan aytganda¹, “Inson qadri uchun” degan tamoyil barcha islohotlarimizning asosini tashkil etmoqda. “Inson – jamiyat – davlat” degan yangi tizim asosida O‘zbekiston oldinga qarab intilmoqda.

Bugungi kunda, yangi O‘zbekistonda qonun ustuvorligini ta‘minlashning zarur normativ-huquqiy va tashkiliy institutsional asoslari shakllantirilganmi? degan o‘rinli savol yuzaga keladi. Bizning fikrimizcha, mamlakatda qonun ustuvorligini ta‘minlash tushunchasi xalq hokimiyati va inson huquqlari tushunchalari bilan bevosita uzviy bog‘liqdir. Bundan tashqari, xalqaro hujjatlarda ham qonun ustuvorligining asosiy elementlariga qonun ijodkorligining shaffofligi, demokratik jarayonlarning qonuniylikka asoslanishi, huquqiy aniqliq, o‘zboshimchalikning taqiqlanganligi, xolis odil sudlovning ochiqqligi, ma‘muriy hujjatlar ustidan sud nazoratining o‘rnatilganligi, inson huquqlarini hurmat qilish, kamsitmaslik va qonun oldida tenglik kabilar bayon etilgan. Shu o‘rinda, butunjahon adolat loyihasining (WJP) Global qonun ustuvorligi indeksiga ko‘ra O‘zbekiston 2024-yilda 142 davlat orasida 83-o‘rinni egallaganini qayd etgan².

Kuchli uchtalikni esa Daniya (1-o‘rin), Norvegiya (2-o‘rin) va Finlandiya (3-o‘rin) band etgan³. Mazkur ko‘rsatkich yangi O‘zbekiston kabi tez rivojlanayotgan yosh mamlakat uchun past ko‘rsatkich hisoblanadi.

¹ <https://president.uz/uz>

² <https://worldjusticeproject.org/news/wjp-rule-law-index-2024globalpressrelease#:~:text=Rankings%20revealed&text=The%20topranked%20country%20in,countries%20remain%20unchanged%20from%202023>

³ Izoh: Ma‘lumot uchun, World Justice Project (WJP) — butun dunyo bo‘ylab qonun ustuvorligini ta‘minlash vazifasini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan xalqaro tashkilot. U dunyo bo‘ylab mamlakatlar amalda qonun ustuvorligiga qay darajada rioya qilishini ko‘rsatadigan miqdoriy baholash tizimini tashkil qilgan.

Shu o'rinda, mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlash, norma ijodkorligidagi suskashtlik aynan qaysi sohalarida uchramoqda?, bugungi kunda barcha sohalarini tartibga soluvchi qonunchilik milliy bazasining huquqiy salohiyati qanday? degan o'rinli savol yuzaga keladi.

Bugungi kunda mamlakatda jamiyat hayotida barcha sohalarini tartibga solishga qaratilgan jami 100 772 ta normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib⁴, shundan qonunlar – 1.398 tani, Oliy Majlis palatalari hujjatlari – 3.048 tani, Prezident hujjatlari – 4.989 tani, hukumat qarorlari – 10.768 tani, vazirlik, davlat qo'mita va idoralarning hujjatlari – 8.292 tani, mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari – 11 038 tani, sud hujjatlari – 330 tani, xalqaro hujjatlar – 1.567 tani, texnik hujjatlar – 884 tani, sud amaliyoti hujjatlari – 584 tani, Markaziy saylov komissiyasining hujjatlari – 61 tani tashkil etmoqda.

Mazkur normalar sohalar kesimida o'rganilganda eng norma ijodkorligi past ko'rsatkichlardan biri bu fuqarolikni rasmiylashtirish bilan bog'liq yo'nalish bo'lib, jami qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning 0,010 %ni tashkil etgan. Shu o'rinda, bugungi kunda yangi O'zbekistonda fuqarolikni rasmiylashtirish yo'nalishida ham bir qator huquqiy bo'shliqlar, mahalliy normalarni halqaro normalarga integratsiya qilish bilan bog'liq muammolar mavjudligini IIVning Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bosh boshqarmasi tomonidan amalga oshirilgan ishlar sarhisobidan⁵ ham ko'rish mumkin.

Xususan, mamlakatda 2016-yildan bugungi kunga qadar fuqarolikni rasmiylashtirish va undan chiqish bilan bog'liq qator ishlar amalga oshirilgan. Bularga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi, 22-bandi hamda "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 4, 19 va 21-moddalariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 112 ta Farmonlariga asosan jami 24 ming 705 nafar fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi berilgan.

Shulardan, 2016-yilda 179 nafar, 2017-yilda 1.064 nafar, 2018-yilda 2.760 nafar, 2019-yilda 6.318 nafar, 2020-yilda 8.127 nafar, 2021-yilda 4.567 nafar, 2022-yilda 553 nafar, 2023-yilda 583 nafar va 2024-yilda 554 nafar (1992-yildan 2016-yilga qadar respublikamizda jami 482 nafar fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilingan) tashkil qilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini tan olish bo'yicha 1995-yil 1-yanvar kuniga qadar respublikamizga ko'chib kelib doimiy ro'yxatdan o'tgan 35 ming 196 nafar shaxslardan 23 ming 969 nafarining hujjatlari ko'rib chiqilib, O'zbekiston Respublikasi fuqarolik pasporti (identifikatsiya ID-karta) bilan hujjatlashtirish choralari ko'rilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini tan olish bo'yicha 2005-yil 1-yanvar kuniga qadar respublikamizga ko'chib kelib, doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olingan hamda muqaddam chet davlat fuqaroligida bo'lmagan shaxslar, bundan tashqari, 2022-yil 1-fevral kun holatiga O'zbekiston Respublikasida kamida o'n besh yil doimiy yashab kelayotgan va mazkur davr mobaynida chet davlat fuqaroligida bo'lmagan jami 20 ming 570 nafar shaxslarning hujjatlari ko'rib chiqilib, O'zbekiston Respublikasi fuqarosining identifikatsiya ID-kartasi bilan hujjatlashtirish choralari ko'rilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida kamida o'n besh yil doimiy yashab kelayotgan va mazkur davr mobaynida chet davlat fuqaroligida bo'lmagan shaxslarning hamda ota-onasidan

⁴ Izoh: O'zbekiston Respublikasi qonunchilik milliy bazasi // lex.uz

⁵ O'zbekiston Respublikasi IIV Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bosh boshqarmasi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan 2024-yilning 9 oyi davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumoti

biri (yolg'iz otasi yoki onasi) O'zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olingan, chet davlat fuqaroligini qabul qilmagan va O'zbekiston Respublikasida yashab kelayotgan bolalarning murojaatlariga asosan jami 13 ming 504 (2024-yilning 9 oyida 1 ming 510) nafar shaxslarning hujjatlari ko'rib chiqilib, O'zbekiston Respublikasi fuqarosining identifikatsiya ID-kartasi bilan hujjatlashtirish choralari ko'rilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish bo'yicha 430 nafar shaxslarning hujjatlari o'rganib chiqilib, xulosalar tayyorlandi va ulardan 210 nafarining hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik masalalari komissiyasiga taqdim qilingan. Yana shuni alohida taakidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 3 ta Farmoniga binoan 1 ming 140 nafar fuqarolar O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqarildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotish bo'yicha 156 nafar shaxslarning hujjatlari o'rganib chiqilib, xulosalar tayyorlangan va ulardan 138 nafarining hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik masalalari komissiyasiga taqdim qilindi. O'tgan davr mobaynida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 3 ta Farmoniga binoan 419 nafar fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi yo'qotildi⁶.

Shu bilan birga, xorijiy fuqarolarni hisobga olish yo'nalishi bo'yicha, jami 1 mln. 891 ming 642 nafar chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxs (keyingi jummalarda CHEF va FBSH deb yuritiladi)lar Respublika hududida vaqtincha turgan joyi bo'yicha qayddan o'tgan.

Shulardan 322 ming 27 nafar joylardagi MvaFRBlardan, 1 mln. 530 ming 685 nafari joylashtirish vositalaridan va 38 ming 730 nafari jismoniy shaxslar tomonidan vaqtincha ro'yxatga olingan.

Shulardan, 322 ming 227 nafar CHEF va FBSHlar joylardagi MvaFRBlardan vaqtincha turgan joyi bo'yicha qayddan o'tgan. Ulardan 30 kungacha vizasiz kelganlar 76 ming 536 nafar, elektron viza bilan kelganlar 9 ming 450 nafar, IT-viza bilan kelganlar 26 nafar, investorlar 13 nafar, vatandoshlar 152 nafar va 236 ming 50 nafari boshqa yo'nalishlarda kelganlarni tashkil etadi. Joylardagi MvaFRBlar tomonidan 20 ming 867 nafar chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga taklifnomalar rasmiylashtirilgan. Ulardan 386 nafari vatandosh, 20 ming 481 nafari mehmonlarni tashkil etadi.

Respublikamiz hududida bo'lish qoidalarini buzib yashab kelgan jami 11 ming 371 nafar CHEF va FBSHlar hamda ularni qabul qilish qoidalarini buzgan respublikamiz fuqarolari aniqlangan bo'lib, ularga nisbatan MJTKning 225-moddasi tegishli bandlariga asosan ma'muriy choralar ko'rilgan. Shundan 11 ming 125 nafaridan jarima undirilgan, 246 nafari hududiy sud idoralariga yuborilgan. Shuningdek, 336 nafar qoidabuzar CHEF va FBSHlar o'rnatilgan tartibda respublikamiz hududidan chiqarib yuborilgan bo'lsa 36 nafar shaxsning arizalari rad qilingan.

Mazkur amaliyot materiallaridan ko'rish mumkinki, bugungi kunda yangi O'zbekistonda jami 11 ming 407 nafar CHEF va FBSHlarga qo'llanilgan ta'sir choralarining asosiy salbiy sabablarga:

birinchidan, tez va qulay xizmatlar;

ikkinchidan, huquqiy shaffoflik va qat'iy me'yorlar;

uchinchidan, tezkor muddatlar va samarali boshqaruv;

to'rtinchidan, til va madaniyatga muvofiqlik imtihonlari;

beshinchidan, qonunchilikda shaffof va axborotga asoslangan jarayonlar va saxovatli integratsiya;

oltinchidan, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlari qabul qilinmaganligi;

⁶ O'sha manbaa

yettinchidan, halqaro normalarga integratsiya qilinmaganligi kabilardir.

Tez va qulay xizmatlar: Aksariyat rivojlangan davlatlarda fuqarolikka murojaat qilish jarayonlari onlayn tarzda amalga oshiriladi. Masalan, **AQSH**da “USCIS” elektron platformasi orqali arizalar topshiriladi va jarayonni kuzatish mumkin. **Germaniya** va **Kanadada** ham shunday raqamli platformalar faoliyat yuritadi;

huquqiy shaffoflik va qat’iy me’yorlar: Ko’p davlatlarda fuqarolikka qabul qilish jarayonidagi har bir bosqich qat’iy tartibga solinadi va yuridik me’yorlarga asoslanadi. **Buyuk Britaniya** va **Avstraliyada** fuqarolikka murojaat etuvchilar uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilgan, ular orqali nomzodning huquqiy ahvoli, malakasi va talablarga javob berishi tekshiriladi;

tezkor muddatlar va samarali boshqaruv: **Yaponiyada** fuqarolikka qabul qilish muddatlari qisqartirilgan va har bir bosqichning aniq muddati belgilangan. Shuningdek, arizalarni ko’rib chiqish jarayonida hech qanday to’siqlar yo’q, bu esa jarayonni samaraliroq qiladi;

til va madaniyatga muvofiqlik imtihonlari: **Fransiya** va **Niderlandiya** kabi davlatlarda fuqarolikka qabul qilish jarayonida til bilimi va madaniyat bo’yicha imtihonlar o’tkaziladi. Bu talablar fuqarolikka murojaat qiluvchi shaxsning mamlakatga integratsiyasini oshirishga yordam beradi;

Qonunchilikda shaffof va axborotga asoslangan jarayonlar: **Shvetsiya** va **Finlyandiyada** arizachilar uchun barcha talablar va bosqichlar shaffof ravishda bayon etilgan. Bundan tashqari, bu davlatlar veb-saytlarida murojaat etuvchilarga maslahat va qo’llanmalar taqdim etiladi, ular orqali har bir qadamda yordam olish mumkin;

Saxovatli integratsiya va ijtimoiy qo’llab-quvvatlash dasturlari: **Kanada** va **Avstraliyada** fuqarolikka ega bo’lgan shaxslarning ijtimoiy moslashishi uchun maxsus dasturlar amalga oshiriladi. Bunday dasturlar ularga bepul til kurslari, ish topishda yordam va uy-joy topishda ko’mak ko’rsatishni o’z ichiga oladi.

Bundan tashqari, fuqarolikni rasmiylashtirish yohud fuqarolikdan voz kechish bilan bog’liq ijobiy halqaro qoidalar quyidagi halqaro tashkilotlarning nizomida aks etgan. Bularga:

birinchidan, **Marokashning Marrakesh** shahrida 2018-yilning 10-11-dekabr kunlari bo’lib o’tgan xalqaro konferensiyasida BMTning Qochqinlar ishlari bo’yicha oliy komissari (UNHCR) va Xalqaro migratsiya tashkiloti (IOM) tashabbusi bilan “Global Compact for Migration”⁷ deb nomlangan halqaro hujjat qabul qilingan bo’lib, mazkur hujjat BMTning xavfsiz migratsiyani ta’minlash va migrantlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan;

ikkinchidan, European University Institute (EUI) tomonidan 2020-yilda “Globalcit”⁸ nomli halqaro dasturi qabul qilingan bo’lib, mazkur dasturning maqsadi fuqarolik huquqlari bilan bog’liq davlatlararo normalarni qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur dastur davlatlar o’rtasidagi fuqarolikka ega bo’lish va yo’qotishning turli yo’llarini tartibga solishga shuningdek, fuqarolik olish yoki yo’qotishning xalqaro amaliyotlarini tadqiq qilish orqali milliy qonunlarni xalqaro standartlarga moslashtirish uchun xizmat qiladi;

uchinchidan, Yevropa Ittifoqi tomonidan 2021-yilda “Citizenship Acquisition and Loss in the EU”⁹ deb nomlangan halqaro hujjat qabul qilingan bo’lib, ushbu halqaro hujjatning

⁷ BMTning Qochqinlar ishlari bo’yicha oliy komissari (UNHCR) va Xalqaro migratsiya tashkiloti (IOM) tashabbusi bilan “Global Compact for Migration”<https://www.iom.int/global-compact-migration>

⁸ “Globalcit” https://home-affairs.ec.europa.eu/index_en

⁹ Migration and Home Affairs // [https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/BRIE/2018/625116/EPRS_BRI\(2018\)625116_EN.pdf](https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/BRIE/2018/625116/EPRS_BRI(2018)625116_EN.pdf)

maqsadi Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar orasida fuqarolikka ega bo'lish yohud yo'qotish tartiblarini, qonunchilik asoslarini hamda jamiyatga integratsiyalashuv talablarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotda fuqarolikni olish uchun til bilish, qonuniy yashash, jamiyatga moslashish kabi talablar va soddalashtirilgan fuqarolik jarayonlari tahlil qilishga qaratilgan.

Shuningdek, mazkur qoida Yevropa Ittifoqi mamlakatlari orasida fuqarolikni rasmiylashtirish yohud fuqarolikka qo'yilgan talablarni jamiyat hayotiga integratsiya qilish orqali soddalashtirish, fuqarolikni olish jarayonlarida mavjud byurokratiyani kamaytirish, muddatlarni kamaytirish, inson huquqlarini himoya qilish va jamiyatga faol integratsiyani rag'batlantirish kabi maqsadlarga qaratilgan. Masalan:

- ❖ Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida fuqarolikka ega bo'lish uchun qonuniy yashash muddati turli davlatlarda farq qiladi. Ko'p davlatlar qonuniy yashash talabini (5-10 yil) qo'ygan bo'lsa, ayrim davlatlarda bu muddat qisqartirilishi;

- ❖ fuqarolikni olish uchun davlat tilini bilish va jamiyatga integratsiyalashish bo'yicha testlar o'tkaziladi. Masalan, Germaniyada til bilish (B1 daraja) va jamiyatga integratsiyalashuv testlari fuqarolik olish jarayonida talab qilinadi. Bu talablar davlatning madaniy va qonunchilik tizimiga fuqarolarning moslashishiga;

- ❖ ayrim mamlakatlar vatandoshlar yoki qochqinlarga soddalashtirilgan fuqarolik berish yo'llarini qo'llashadi. Ushbu tadqiqotlar bu mexanizmlarning samaradorligini o'rganib, boshqa davlatlar uchun tavsiyalar ishlab chiqishga;

- ❖ ba'zi Yevropa mamlakatlari ikkinchi fuqarolikka ruxsat berishadi, bu global migratsiya jarayonlarida inson huquqlarini himoya qilishda muhimdir. Lekin, ikkinchi fuqarolik to'g'risidagi qonunlar har bir davlatda turlicha begilanganligiga.

Yuqorida biz rivojlangan davlatlar ijobiy tajribasi va halqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan halqaro standart qoidalarining ijobiy yutuqlari bugungi kunda yangi O'zbekistonda amalda bo'lgan "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi qonuni¹⁰ning mazmunida o'z aksini topganmi? degan o'rinli savol yuzaga keladi. Olib borilgan ilmiy izlanish va tadqiqotlar natijasida bugungi kunda amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi qonuni¹¹da halqaro standart qoidalarini mazmunan qamrab olmagan qator salbiy holatlar mavjudligini sanab o'tish mumkin. Bularga:

birinchidan, raqamlashtirilgan platformalarning yo'qligi, ya'ni xalqaro amaliyotda Germaniya, Singapur kabi rivojlangan davlatlarda fuqarolikka murojaat qilish va hujjatlar topshirish jarayonlari raqamli platformalar orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston qonunchiligida bu kabi platformalar joriy qilinmagan, bu esa murojaatlarning kechiktirilishi va byurokratik to'siqlarning mavjudligiga sabab bo'ladi;

ikkinchidan, investorlik asosida fuqarolik olish imkoniyatining yo'qligi. Antigua va Barbuda, Turkiya, Dominika kabi davlatlarda iqtisodiy foyda keltirgan shaxslarga maxsus fuqarolik dasturlari joriy etilgan. O'zbekiston qonunida bu kabi imkoniyatlar mavjud emas, bu mamlakatga sarmoyalarni jalb qilishdagi muhim imkoniyatlarning yo'qligini ko'rsatadi;

uchinchidan, huquqiy kafolatlarni kuchaytirish zaruriyati: AQSH va Germaniya qonunlarida fuqarolikka qabul qilish jarayonida shaxslarning huquqiy kafolatlari keng yoritilgan

¹⁰ O'zbekiston Respublikasining 13.03.2020-yildagi "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi O'RQ-610-son qonuni // <https://lex.uz/docs/4761984>.

¹¹ O'sha manbaa // <https://lex.uz/docs/4761984>.

va ko'p bosqichli huquqiy himoya tizimi mavjud. O'zbekiston qonunida ham fuqarolikni olish va yo'qotish jarayonlarida huquqiy himoya va kafolatlar mos ravishda mustahkamlanishi kerak.

Shu o'rinda yuqorida keltirib o'tilgan Qonun normalarini tizimli tahlil etish, uni takomillashtirish istiqbollari belgilashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi qonuni¹²ni moddama-modda tahlil qilishda qonunning har bir moddasi mazmunini xalqaro standartlar va xorijiy tajribalar bilan qiyosiy tahlil qilish va asosli takliflar keltirish mumkin:

qonunning 1-moddasi qonunning asosiy maqsadi, ya'ni fuqarolikni olish va yo'qotish munosabatlarini tartibga solish, qonuniy talablarni qamrab olgan. Shu bilan birga, mazkur normada Yevropa Ittifoqi va boshqa rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, O'zbekistonda fuqarolik masalalarini idoraviy hamkorlik va raqamli ma'lumotlar bazasi orqali avtomatlashtirishni nazarda tutish mumkin;

qonunning 2-moddasini O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarga asoslangan fuqarolik qoidalari haqidagi qismida, agar O'zbekiston qonunchiligida qaralmagan holatlar bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llanilishi aytilgan. Fikrimizcha, bu qoida xalqaro shartnomalarning to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirilishini kafolatlashni talab qiladi, ammo milliy qonunchilikka uyg'unlashtirish talab etiladi;

qonunning 3-5-moddalari asosiy tushunchalar va fuqarolikqa mansublik munosabatlariga bag'ishlangan bo'lib, 3-moddada asosiy tushunchalarni kengroq va har tomonlama yoritish, shu jumladan fuqaroligi bo'lmagan shaxs tushunchasini yanada to'ldirish, BMTning Fuqaroligi bo'lmaganlikka qarshi konvensiyalariga muvofiqlashtirish zarur. Zotan, bugungi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlarida 116 ming 629 nafardan ortiq insonlar fuqarolikka ega bo'lmay qolmoqda¹³.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi qonuni¹⁴ning 3-5-moddalari fuqarolik tushunchalari va unga mansublik munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan bo'lib, bu borada bir necha takomillashtirish yo'nalishlari ilmiy asoslanishi zarur.

Birinchi navbatda, 3-moddada asosiy tushunchalarni kengroq bayon etish zarur, chunki mazkur qonun fuqarolik va unga bog'liq huquqiy munosabatlar hamda davlat va fuqaro o'rtasidagi mustahkam aloqalarni belgilab beradi. Bunda, "fuqaroligi bo'lmagan shaxs" tushunchasini ham BMTning "Fuqaroligi bo'lmaganlikka qarshi" 1954 va 1961-yillardagi konvensiyalariga muvofiq keltirish orqali huquqiy aniqlikni ta'minlash mumkin. Chunki, Markaziy Osiyo mamlakatlarida 116, 629 nafardan ortiq shaxs hanuz fuqarolikka ega emas, bu ularning siyosiy, ijtimoiy, va iqtisodiy huquqlarini amalga oshirishda jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Ilmiy jihatdan yondoshilganda, Fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tushunchasini aniq va to'liq yoritish ularning huquqiy maqomi, himoya va ijtimoiy yordam olish imkoniyatlarini mustahkamlaydi. Masalan, BMTning 1961-yildagi Konvensiyasida Fuqaroligi bo'lmaganlikka chek qo'yish, barcha insonlarning fuqarolik huquqlarini himoya qilishga yo'naltirilgan qoidalar mavjud.

¹² O'zbekiston Respublikasining 13.03.2020-yildagi "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi O'RQ-610-son qonuni // <https://lex.uz/docs/4761984>.

¹³ <https://www.unhcr.org/centralasia/wp-content/uploads/sites/75/2021/11/UNHCR-Statelessness-conventions-2021-A5-screen-1.pdf>

¹⁴ O'zbekiston Respublikasining 13.03.2020-yildagi "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi O'RQ-610-son qonuni // <https://lex.uz/docs/4761984>.

Shu bois, O'zbekistonda fuqarolik qonunchiligini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, ya'ni bu tushunchalarni qonun matniga qo'shish va uni amaliy qo'llash fuqarolikni rasmiylashtirish jarayonini soddalashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, fuqarolikka mansublik va fuqarolikni olish, bekor qilish masalalarida ham xalqaro tajribani inobatga olish muhim. Masalan, AQSH va Yevropaning ko'plab davlatlarida fuqarolikni olish va saqlash tartiblari davlat manfaatlari bilan bir qatorda inson huquqlarini himoya qilishga ham qaratilgan. Ular, shuningdek, fuqarolikdan mahrum etish jarayonini juda ham ehtiyotkorlik bilan belgilaydi, chunki bu insonlarning huquq va erkinliklarini cheklash imkonini minimal darajaga keltiradi.

Fuqarolikni olish tartibi (13-17-moddalar): Qonunning 13-moddasida fuqarolikni olish uchun aniq shartlar ko'rsatilgan bo'lsa-da, chet el fuqarolari uchun soddalashtirilgan tartib joriy qilish taklif etiladi. Bu, ayniqsa, chet ellik mutaxassislar, sarmoyadorlar va yuqori malakaga ega shaxslar uchun juda dolzarbdir. Bunda BMTning xalqaro standartlari inobatga olingan holda, hujjatlarning tezkor rasmiylashtirilishi va fuqarolikni olish huquqlari kengaytirilishi mumkin.

Tug'ilganlik bo'yicha fuqarolik (14-modda): Xalqaro standartlarga muvofiq, chet elda tug'ilgan bolalarga soddalashtirilgan tartibda fuqarolik berish imkoniyati yaratilishi zarur. Bu inson huquqlarini himoya qilishda, jumladan, bolalarning huquqiy maqomini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Fuqarolikka qabul qilish va uni tiklash (18-22-moddalar): Qonunning 18-moddasida yuqori malakaga ega shaxslarga soddalashtirilgan yoki maxsus shartlarda fuqarolik berish imkoniyatini nazarda tutadi. BMTning fuqarolik va inson huquqlari bo'yicha standartlariga mos keltirilgan tartib-qoidalarni joriy etish orqali qonun xalqaro standartlarga yanada uyg'unlashtirilishi mumkin.

Fuqarolikni yo'qotish asoslari (23-26-moddalar): Fuqarolikni yo'qotish masalasi xalqaro huquqqa muvofiq ko'rib chiqilishi lozim. Bu, ayniqsa, davlat xavfsizligiga tahdid solgan hollarda, inson huquqlari bo'yicha xalqaro majburiyatlarga zid bo'lmashligi uchun muhimdir.

Ota-onasining fuqaroligi o'zgargan taqdirda bolaning fuqaroligi (32-36-moddalar):

Bolalarning fuqarolik huquqlarini himoya qilish xalqaro konvensiyalariga mos ravishda ularning fuqaroligiga nisbatan huquqiy kafolatlarni kuchaytirish zarur.

Hujjatlarni rasmiylashtirish va idoralararo ma'lumotlar bazasi (41-44-moddalar):

Elektron portallarni rivojlantirish va avtomatlashtirish orqali fuqarolikni olish va aniqlash jarayonlari jadallashtirilishi mumkin. Bu jarayonlarni shaffof va tezkor qilgan holda fuqarolikqa oid ma'lumotlar bilan ishlash sifatini oshirishga yordam beradi.

Fuqarolik masalalari komissiyasi (46-49-moddalar): Komissiya faoliyatida huquqiy shaffoflikni ta'minlash muhimdir. Buning uchun jamoatchilik ishtiroki va mustaqil kuzatuvchilarning ishtirok etishi hamda ommaviy axborot vositalarida keng yoritish zarur.

Javobgarlik (54-modda): Fuqarolik sohasida qonunbuzarliklarga nisbatan javobgarlik masalasida shaffoflikni oshirish taklif etiladi. Bu o'z navbatida qonunbuzarliklarning oldini olishda va profilaktika choralarini kuchaytirishda muhim omil bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan rivojlangan davlatlarning ijobiy tajribasi va xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implemitatsiya qilinishi kelajakda yangi O'zbekistonda ham fuqarolikni rasmiylashtirish tizimini takomillashtirish, jarayonni shaffoflashtirish va qonuniy asoslarni mustahkamlash mumkin. Buning natijasida fuqarolikni olish jarayoni yanada qulay, shaffof va tezkor bo'lishiga erishiladi.

Ichki ishlar organlarining fuqarolikni rasmiylashtirish faoliyatini takomillashtirish, birinchi navbatda, protsedural aniqlik va shaffoflikni oshirish, xizmat ko'rsatishning "fuqaroga yo'naltirilgan" modelini joriy etish hamda idoralararo integratsiyani kuchaytirish orqali amalga oshirilishi lozim. Amaliy nuqtayi nazardan yagona protsedural standartlar, hujjatlar talabini ratsionallashtirish, raqamli identifikatsiya va verifikatsiyani kengaytirish, "track-and-trace" orqali nazorat va hisobdorlikni kuchaytirish, qarorlarni majburiy asoslantirish va samarali elektron shikoyat tizimini yo'lga qo'yish islohotlarning ustuvor yo'nalishlari sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi va kiberxavfsizlik talablarini qat'iy standartga aylantirish, komplaens va korrupsiyaga qarshi mexanizmlarni kuchaytirish hamda kadrlar salohiyatini oshirish modernizatsiyaning zarur shartidir. Natijada, IIONing fuqarolik xizmatlari huquqiy aniqligi yuqori, tezkor, shaffof va ishonchli ma'muriy tizim sifatida qaror topadi.